

Bankni strategik rivojlantirish departamenti

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

23 noyabr, 2026 yil

SQB, NBU, AGRO BANK, IPOTEKA BANK va ALOQA BANK evrobondlarining daromadliligi

(20 oktabr 2025 yildan 23 noyabr 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SANOAT QURILISH BANK

SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 7,094% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarilib va 7,219% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,790% – 7,219% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 10,051% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 9,927% darajaga pasaydi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 10,190% gacha o'zgarib turdi.

NBU O'ZBEKISTON MILLIY BANKI

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,745% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,819% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,982% gacha o'zgarib turdi.

ipotekabank otp group

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 7,089% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 7,122% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-7,122% gacha o'zgarib turdi.

Agrobank

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 7,312% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 7,526% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,256% gacha o'zgarib turdi.

AloqaBank

O'tgan hafta ALOQA BANK evrobondlarining daromadliligi 8,349% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 8,653% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,680-8,653% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor

AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,97% atrofida barqaror bo‘lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,93% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko‘rsatkich pasayib — 3,91 darajasiga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o‘zgarishlarini ko‘rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo‘yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o‘zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko‘plab ipoteka kreditlari bog‘langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o‘tgan haftaning boshiga kelib 2,849% (3 oylik) va 3,071% (6 oylik) darajalariga yetdi. 2023-yilning oktyabr o‘rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo‘lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko‘rsatkichlar 3,103% (6 oylik) va 2,849% (3 oylik) ni tashkil etdi.

O‘zbekiston valyuta bozori

O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O‘tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 830,6 million dollarni tashkil etdi, bu o‘tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 10,7 million dollarga kamroq.
- ✓ O‘tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 023 so‘mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko‘tarilib 12 004 so‘mga yetdi.
- ✓ Har yili so‘m o‘rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 0,44% ni tashkil etdi.

Dollarning so‘mga nisbatan almashinish kursi





23.11.2026 yil holatiga ko‘ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Asaka bankda* qayd etilgan – *12 030* so‘m. Boshqa banklarda esa kurs 12 050 – 12 060 so‘m atrofida o‘zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo‘yicha eng foydali kurs *Universalbankda* qayd etilgan – 11 990 so‘m. Boshqa ko‘plab banklarda esa kurs 11 980 – 11 945 so‘m atrofida bo‘lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)

USD-RUB dinamikasi



YUAN-RUB dinamikasi



EUR-USD dinamikasi





Rossiya rubli AQSH dollariga nisbatan biroz mustahkamlandi

2026-yil 16–20-noyabr kunlari AQSH dollari kursi 82,6 rubldan 82,1 rublgacha pasaydi. Hafta davomida valyuta kursida mo‘tadil tebranishlar kuzatilib, 18-noyabr kuni bir AQSH dollari 82,4 rublni tashkil etdi. Rossiya valyutasining mustahkamlanishiga eksportchilar tomonidan xorijiy valyuta taklifining ortishi hamda ichki bozorda rubl likvidligiga bo‘lgan talab sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Hafta yakunida AQSH dollari kursi yana 82,1 rubl darajasiga qaytdi. Rubl kursining keyingi dinamikasi eksport tushumlari, xorijiy valyutaga bo‘lgan talab hamda Rossiya Bankining pul-kredit siyosatiga bog‘liq bo‘ladi.



Xitoy yuanining Rossiya rubliga nisbatan kursi barqaror saqlandi

2026-yil 16–20-noyabr kunlari Xitoy yuanining Rossiya rubliga nisbatan kursi bir yuan uchun 12,1 rubl darajasida saqlandi. Hafta davomida valyuta kursida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi, bu esa mazkur valyuta juftligining nisbatan barqarorligidan dalolat beradi. Kursning keyingi dinamikasi Rossiya valyuta bozorida yuanga bo‘lgan talab, Xitoy bilan tashqi savdo hisob-kitoblari hajmi hamda Rossiya valyuta bozoridagi umumiy vaziyatning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi.



Yevro AQSH dollariga nisbatan biroz qadrsizlandi

2026-yil 16–20-noyabr kunlari yevroning AQSH dollariga nisbatan kursi 1,0996 dollardan 1,0967 dollargacha pasaydi. Hafta davomida Yevropa valyutasi kursida asosan pasayish tendensiyasi kuzatilib, 19-noyabr kuni eng past ko‘rsatkich qayd etildi. AQSH dollarining mustahkamlanishi hamda inflyatsion bosim saqlanib qolayotgan bir sharoitda AQSH Federal rezerv tizimi pul-kredit siyosatini qat’iylashtirishi mumkinligi haqidagi kutilmalar yevro kursiga bosim o‘tkazdi. Hafta yakunida valyuta kursi 1,0970 dollar atrofida barqarorlashdi. Kursning keyingi dinamikasi AQSH Federal rezerv tizimi va Yevropa Markaziy bankining foiz stavkalari bo‘yicha qarorlariga, shuningdek, AQSH va yevro hududining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari e’lon qilinishiga bog‘liq bo‘ladi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

Oltin narxlari dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlari dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Jahon bozorida oltin narxlari pasayishda davom etdi



Hafta davomida oltin narxlari izchil pasayib, 20-noyabr kuni bir troya unsiyasi uchun 3 532,4 AQSH dollari miqdoridagi eng past ko‘rsatkich qayd etildi. AQSH dollarining mustahkamlanishi, AQSH davlat obligatsiyalari daromadliligining yuqori darajada saqlanib qolishi hamda AQSH Federal rezerv tizimining qat’iy pul-kredit siyosatini davom ettirishi bo‘yicha kutilmalar oltin narxlariga bosim o‘tkazgan bo‘lishi mumkin. Mazkur omillar investorlar uchun oltinning jozibadorligini pasaytirib, narxlarning pasayish tendensiyasini kuchaytirgan bo‘lishi mumkin. Oltin narxlarining keyingi dinamikasi AQSH Federal rezerv tizimining foiz stavkalari bo‘yicha qarorlari, dollar kursining o‘zgarishi hamda himoya aktivlariga bo‘lgan talabga bog‘liq bo‘ladi.

Brent markali neft narxlari haftani mo‘tadil o‘sish bilan yakunladi



Hafta boshida Brent markali neft narxi bir barrel uchun 93,14 AQSH dollariga yetib, eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. Shundan so‘ng, 18-noyabrga kelib, neft narxi 91,95 dollargacha pasaydi. Jahon bozorida neft taklifining ortishi bo‘yicha kutilmalar hamda AQSHda tijorat neft zaxiralarining ko‘payishi narxlarga bosim o‘tkazdi. Hafta yakuniga kelib, Yaqin Sharqda geosiyosiy keskinlikning saqlanib qolishi va neft yetkazib berishda uzilishlar yuzaga kelishi xavfi fonida narxlar qayta ko‘tarilib, 20-noyabr kuni bir barrel uchun 92,57 AQSH dollarini tashkil etdi.

Yevropa gaz bozorida TTF narxlari hafta oxiriga kelib tiklandi



Hafta boshida Yevropa gaz bozorida TTF narxlari bir megavatt-soat uchun 88,0 AQSH dollaridan 81,9 dollargacha pasayib, 18-noyabr kuni eng past darajaga yetdi. Yevropada nisbatan iliq ob-havo kuzatilishi haqidagi prognozlar hamda suyultirilgan tabiiy gaz (STG) yetkazib berish hajmining ortishi bo‘yicha kutilmalar gaz narxlariga bosim o‘tkazgan bo‘lishi mumkin. Haftaning ikkinchi yarmida narxlar yana o‘sishni boshladi va 20-noyabrga kelib bir megavatt-soat uchun 88,2 AQSH dollarini tashkil etdi. Narxlarning tiklanishiga havo haroratining pasayishi bo‘yicha kutilmalar hamda Yevropa gaz omborlaridagi zaxiralarning yetarliligi bilan bog‘liq xavotirlar sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.